

**YOSH VA PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA FANINING TADQIQOT SOHASI VA MUAMMOLARI.**

**Asiydinova Shaxnoza Shuxratbek qizi.  
Andijon Davlat Pedagogika Instituti  
Maktabgacha ta’lim 1-bosqich talabasi.**

Yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanlari har tomonlama bir biriga bog‘liq fan hisoblanadi. Yosh davrlari muammolari. Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlari. Bolalarda xarakter , yoshlik davri shaxs xususiyatlari „meni, rivojlanish davri hisoblanadi. Shaxsning , bolaning dunyoqarashi , Maktab va Maktabgacha yoshdagi bolaning psixikasi bilan jiddiy shug‘ullanish kerak. Bolada diniy e’tiqodning shakllanishi, dunyoviy bilimlarni egallashi, saviyasi ortishi, turli noto‘g‘ri yo‘llarga kirib ketmasligi uchun jamiyatda Tarbiyachi, Psixolog va o‘qituvchilar mas’ul shaxs hisoblanadi va albatta ota-onasi , bolaning bolaning oliya a’zolari ham birdek javobgardir. Tarbiya asosan oiladan boshlanadi. Bolaga boshlang‘ich tarbiyani uning oilasi beradi. Qush uyida ko‘rganini qiladi deganlaridek bola hali psixik rivojlanmagan yoshda bo‘ladi uni oilasi dastlabki bilim, odob-axloq, tarbiya va ko‘chada yurish-turish odoblarini o‘rgatib boradi. Bolaga keying bilim, tarbiyalarni tarbiyachisi va ustozidan oladi. Inson o‘zini yaqindan tanishi va ruhiy holatining qay darajada ekanligi bilishi uchun o‘zini o‘zi hissiy tahlildan o‘tkazishi kerak bo‘ladi. O‘zini hissiy tahlildan o‘tkazayotgan kishi eng avvalo o‘ziga „Ayni paytda ruhiy ahvolim qanday?“, degan savolni berib ko‘radi. Agar bu savolga javobi salbiy bo‘lsa, u holda , „o‘zimni o‘zgartirishim kerak, deb o‘ylashni boshlaydi. „Xato qildim tuzatishim kerak, o‘zimni qo‘lga olishim kerak, degan tushunchalar kishining hissiy intellektga ega ekanligini ko‘rsatadi. Maktabgacha va maktab yoshidagi bola, bunday fikrlaydimi?. Bunday vaziyatda bolaga katta odamlar psixikasini o‘rganishi, unga vaziyatdan chiqishiga ko‘maklashishi lozim. Jamiyatda xar hil odamlar bor , va ularning psixikasi, xarakteri har xil. Ular har xil vaziyatda o‘zini tuta olmasligi, vaziyatni to‘g‘ri baxolay olmasligi mumkin. Bunday vaziyatlarda ularda stress, zo‘riqish, kasbidan zerikish, hayotdan ko‘ngli to‘lmaslik holatlarini kuzatish mumkin. Bolalar psixikasi juda ham murakkab. Ularda quyidagi holatlar o‘smirlik va o‘spirinlik yoshlarida kuzatiladi. Hayotda to‘g‘ri qarorlar qabul qilishni hamda har qanday holatda o‘zi uchun ma’qul yo‘lni topishni istagan kishi nafaqat o‘zidagi, shuningdek, suhbatdoshiga xos xususiyatlarni yaxshi tanib -bilib olishi lozim. Kishilar o‘rtasidagi muloqot va o‘zini tanitishda og‘zaki nutqning (ya’ni so‘z) ahamiyati atigi 25 % ni ya’ni umumiy muloqotning to‘rt dan biri qismini tashkil etadi. Bugungi kunga kelib insonlar „Iste’mol qilyapman , demak mavjudman „, g‘oyasiga tayanib kelmoqda. Zamonaviy davrda insonlar har bir ondan zavqlanib, o‘yin -kulguga keragidan ortiq e’tibor qaratayotganini inkor etib bo‘lmaydi . Insonlardagi his-tuyg‘ularni e’tiborsiz qoldirayotgan yondashuv bilim aniq zavqlarni birinchi o‘ringa olib chiqdi. Rivojlanish deganda odatda hodisalarning har ikki turi tushiniladi va bu tushunchalar bir -biri bilan uzviy bog‘liqdir . Bolaning psixik rivojlanishi harakatlar keltiruvchi kuchlar murakkab va turlichadir. Rivojlanishning mohiyatini ichki ziddiyatlar, bolaning psixik rivojlanishini bevosita harakatga keltiruvchi kuchlar, ta’lim tarbiya jarayonida yuzga keladigan hamda bartaraf qilinadigan eskilik va yangilik o‘rtasidagi qarama- qarshiliklardan, turli ziddiyatlar , muammolar dunyoviy bilim olishda yuzga keladigan qiyinchiliklar paydo bo‘ladi. Bolaning o‘sib borayotgan jismoniy va ruhiy imkoniyatkarida o‘zaro munosabatlar, faoliyat turlari o‘rtasidagi ziddiyatlar kundan -kunga murakkablashib borayotgan talablar, intizom qoidalari, ijtimoiy tarmoq xurujlari , insonlar bilan munosabatlar, ishqiy munosabat, do‘stona munosabatdagi turli ziddiyatlar psixik taraqqiyotning ziddiyat muammolariga kiradi.

Hissiy holatni boshqarish, o‘zini qobig‘ida tura olish, turli xil tahdidlarga tushib qolmaslik insonning o‘ziga bog‘liq albatta. Bunda avvaldan , maktabgacha yoshidan boshlab psixikasini to‘g‘ri o‘stirish, yaxshi tarbiya va kerakli bilimlarni o‘rganish lozim. Hozirgi o‘smirlar o‘tmishdoshlariga nisbatan jismoniy , aqliy, siyosiy jihatdan birmuncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy yetilish , ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o‘sish oldinroq namayon bo‘lmoqda. O‘smir ulg‘aygan sari unda „Ideal Men, „, „Axloqiy Men „, va „, Haqiqiy Men,„ singari shaxsga oid tizim dunyoqarash, e’tiqod va boshqalar shakllanib boradi. Undagi o‘z tasavvurlarini ancha aniq va barqaror bo‘lib qoladi. Psixologlar o‘tkazgan tadqiqotlardan shu ko‘rinadiki , o‘smirlikning ko‘pchiligi qat’iyatlilik ,

**“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.**

kamtarlik, mag’rurlik, samimiylik, dilkashlik kabi ma’naviy, axloqiy tushunchalarni to’g’ri anglaydilar. Bolalarda psixik holatlar o’zini anglash turli yoshlarda ma’lum bo’ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar xarakteri turli tuman bo’ladi. Ular jamoga qo’shish, do’stlar orttirish, jamiyatda o’z fikrini namoyon eta olish kabi xayot ustunlarini o’rganib boradi. Tarbiyachi har tomonlama bola bilan qanday ishlashni bilishi, uni jamoa bilan tanishtirish, maktabga boshlang’ich bilimlar bilan qadam qo’yishini ta’minlash kerak. Ular bilan do’stona munosabat qurish Bolani tarbiyasi, xarakteri bilan jiddiy shug’illani kerak. Yoshlar jamiyatimizning kelajagi ular har tomonlama mukammal bo’lishi kerak bunda psixologiya fani bosh mezondir.

XULOSA: Psixogiya fani insoniyat uchun juda kerakli fandır. Jamiyatimizda insonlar har tomonlama yuksaklikka erishishmoqda, bunda ular uchun mativatsiya bo’lib turgan yurtboshimiz ishonchi, xalqimiz tinchligi, ota-onalarimiz oldimizdaligi va ruhan sog’lom bo’lganimizdir. Dunyoviy bilimlarni egallashda „men,“ shakllanishi, shaxs xususiyatlarini o’rganish psixologiyaning muhim mezoni desak mubolog’a bo’lmaydi. Tarbiya asosan oliadan boshlanganidek, bola psixikasi ham oilada o’sadi, rivojlanadi. Bunda ota – onalar farzandi kelajagi uchun befarq bo’lmasligi, uni har tomonlama psixik tomonlama ham o’stirib borish kerak. Bola huddi yangi o’sayoygan novda uni qanday o’sib borishi jamiyat, oil ava bizga bog’liqdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1.Do’stmuxamedova . SH. A. Baykunusova G. YU. Ziyavitdinova G.Z. ,, Yosh davrlari va pedagogik psixologiya ,, Darslik Toshkent . Nizomiy nomidagi TDPU , 2021- YIL.

2.Nevzat Tarxan ,, Tuyg’ular psixologiyasi,, .

3.Rivojlantirish\_psixologiyasi\_Pedagogik\_psixologiya\_Nishanova\_Z\_T